



KICHIK YOSHLI BOLALARDA OLAMNI IDROK ETISH JARAYONINI SHAKLLANTIRISH

Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14667676>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-Yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 10- Yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 16- Yanvar 2025 yil

KEY WORDS

kichik yoshli bolalar, olam, idrok, ertak, hikoya, teatr, qo'g'irchoq teatri, an'ana, milliy qadriyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada kichik yoshli bolalarda olamni idrok etish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, bu borada olib boriladigan ishlar haqida batafsil so'z boradi. Shu bilan birga kichik yoshli bolalarda olamni idrok etishda saxna asarlaridan foydalanishning qay darajada ahamiyatli ekanligi, bolalarda borliqni anglash jarayonlarida saxna asarlarning hamiyati qay darajada muhim ekanligi haqida so'z boradi.

Har qanday millat, har qanday xalqning orzusi o'zidan har tomonlama yetuk, sog'lom va barkamol bo'lgan bolalarni voyaga yetkazishdir. Bu boradagi orzu intilishlar borasida bizning ona diyorumizda ham mustaqillik yillaridanoq samarali ishlar olib borila boshladi. Ta'kidlash joizki, istiqlolning birinchi kunlaridan yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish masalasiga e'tibor kuchaytirilgan. Shu bilan birga shiddat bilan o'zgarib borayotgan davrda bu sohadagi ishlarni yaxshilash, yoshlarning manfaatlarini ta'minlashga va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani yanada takomillashtirish orqali yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlarni ochib berishni taqazo etmoqda.

Hozirgi davrda mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan izlanishlar, bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilayotgan "Kadlar tayyorlash Milliy dasturi" talablaridan kelib chiqqan holda, kichik yoshli bolalarda olamni idrok etish jarayonini shakllantirishda pedagog hodimlarni faoliyatini kengaytirish, bu borada olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish yuzasidan salmoqli ishlar olib borilmoqda.

Ushbu maqolada kichik yoshli bolalarda olamni idrok etish jarayonini shakllantirish bosqichlari, bu borada samarali faoliyat olib borishning yanada samarali yo'llari haqida mulohaza yuritilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Borliqni anglash, olamni idrok etish jarayoni bevosita sezgi va ong bilan bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Bu jarayonni tahlil qilar ekanmiz bevosita inson sezgi organlari orqali qanday holatni his etishi hamda bu holat mobaynida ongi orqali nimalarni anglashi, tahlil qila olishi bu jarayondagi eng muhim omil hisoblanadi. Shu o'rinda sezgi haqida fikr yuritilar ekan ilohiylik hamda insoniylikning tutashgan joyini tafakkur deb atagan yunon faylasuflaridan biri Empidokl bilish jarayonini sezgilardan deb hisoblab shunday deydi: "Ilk ma'lumotlar sezgilardan olinadi va u to'g'ridan to'g'ri aqlga yetib boradi hamda jon(inson) o'ziga nima zarur ekanligini sezgilar orqali aql vositasi yordamida bilib boradi.

Bundan tashqari sezgining xususiyati haqida fikr yuritganda Q.Nazarov o'zining "Bilish falsafasi" kitobida "Inson sezgi a'zolari taraqqiyoti, bir tomondan, organik olam evolyusiyasi, boshqa tomondan esa, ijtimoiy taraqqiyot natijasi hisoblanadi (3-113-b)" -deydi. Arastu ham "Bilishning ilk bosqichini hissiy bilish va moddiy olamni, tabiatni bilish, sezgilar orqali amalga oshadi (5-125-b)" -degan fikrni ilgari suradi. Faylasuf bilishning predmeti va manbai kishi ongidan tashqaridagi mavjud olam deb hisoblaydi. Arastu fikricha, sezish tirik organizmga taalluqli bo'lib, u tashqi ob'ektiv moddiy olamning ta'siri tufayli yuzaga keladi. Sezgi a'zolari orqali yakka-yakka jism va hodisalarning sifat va xususiyatlari to'g'ri aks ettiriladi. Arastu bilish jarayonida empirik va ratsional bilimlarning birligi ob'ektiv ekanligini ta'kidlaydi.

Bundan kelib chiqib ta'kidlash joizki borliqni anglash, olamni idrok etish eng avvalo sezgi a'zolarini yaxshi rivojlanganlik hamda ong orqali ko'rgan va eshitgan ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qila olishga o'rgatish orqaligina samarali tashkil etilishi mumkin bo'ladi. Bunda esa kichik yoshli bolalarda olamni idrok etish jarayonlarini yanada oson hamda tushunarli amalga oshirish maqsadida ularga tanish bo'lgan badiiy san'atning ertak, teatr, qo'g'irchoq teatri, bolalarga mo'ljallangan o'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek xalq milliy o'yinlaridan metodik qo'llanma sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, yuqorida sanab o'tilgan badiiy san'at turlaridan foydalanish bolajonlar qalbida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat kabi yuksak tuyg'ularni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shu o'rinda bolalarga oid, yoshlarga oid siyosat davlat miqyosida keng ko'lamli amalga oshirilayotgani ham buning yaqqol misolidir. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, har sohada bo'lgani kabi kichik yoshli bolalarni olamni idrok etish jarayonini shakllantirishqa qaratilgan ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Jumladan, kichik yoshli bolalarda olamni idrok etishni yanada rivojlantirish, bolalar ongida idrok etish borasida tasavvur paydo qilish maqsadida bolalar uchun qiziqarli bo'lgan san'at turlaridan foydalanish yo'lga qo'yildi.

Kichik yoshli bolalarda olamni idrok etish jarayonlarni to'laqonli tashkil etish, ularda borliq haqidagi, undagi bo'ladigan turli hil jarayonlarni anglay olishga o'rgatish maqsadida san'atning kichik yoshli bolalarga mo'ljallangan ertak, hikoya, spektakl, teatr, qo'g'irchoq teatri, milliy xalq qo'shiqlari, laparlar, milliy urf-odat va an'analardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Odatda, insonlar umri davomida qabul qiladigan ma'lumotlarni 80%ini ko'rish orqali qabul qilishi faktlar orqali isbotlangan. Bu usul bolalarda ayniqsa juda foydali usul hisoblanib olamni idrok etishda o'z samarasini beradi.

XULOSA

Kichik yoshli bolalarda qiziquvchanlik juda yaxshi rivojlangan bo'lib, bolajonlar yuqorida aytib o'tilgan san'at turlari orqali saxnalashtirilgan san'at asarlarini bor vujudlari bilan, huddi o'zlari ijro etgandek maroq bilan tomosha qiladilar. Bolajonlarga namoyishi tanlanadigan bu saxna asarlarida bolalar tushunishiga oson, badiiylikdan yiroq, ma'maviy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan, milliy qadriyat va an'analarni o'zida mujassam etgan san'at asarlarini tanlay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda prezidentimizning shu so'zlari yodga tushadi: - «Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi

Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz».

Bu so'zlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kichik yoshli bolalarda olamni idrok etish jarayonlarni to'g'ri va samarali tashkil etishda barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib boradigan ilm kishilari, ustozlar, murabbiylar fidokorona mehnat qilmoqlari lozim.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan, axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir davrda bolajonlarni yot g'oyalardan himoya qilish, ularni vatanparvarlik tuyg'usida tarbiyalash oldimizda turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Shunday ekan bolalarni kichiklik davridanoq ongida shakllanayotgan g'oya va mafkuralarini to'g'ri shakllantira olsak, ularni olamni idrok etish jarayonlarida voqea-hodisalarni to'g'ri taxlil qila oladigan darajada shakllantira olsak ular kelajakda o'z hayot yo'lida qanday to'siqqa uchramasin hech qanday qiyinchiliksiz yengib o'ta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Sarflangan investitsiyalar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q» - Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim sohasiga e'tibor haqida. Kun uz. 2022 y
2. Z.T.Nishonova, G.Flalimova, A.G'.Turg'unboyeva, M.X.Asranboyeva. Bolalar Psixologiyasi va psixodiagnostikasi. TOSHKENT- 2017 197b
3. Q.N.Nazarov. Bilish falsafasi.-T."Universitet" 2005 113b
4. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi - T.: Iqtisod-moliya 2007 216 b
5. Mamatov Maxmur. Bilish falsafasi.-T.2024. Uslubiy qo'llanma. 125 b

INNOVATIVE
ACADEMY